“Davlat tilida ish yuritish” kitobi nashr etildi

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti hamda O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari hamkorlikda “Davlat tilida ish yuritish” kitobi nashr etildi.



Joriy yil 10-sentyabr kuni mazkur kitob taqdimotiga bag’ishlangan tadbir o’tkazildi. Unda Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari Abdugappor Kirgizbayev, FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori Nizomiddin Mahmudov, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti prorektori Abdulhay Sobirov, “O’zbekkino” Milliy agentligi direktori o’rinbosari Shuhrat Rizayev, tilshunos olimlar, vazirlik va idoralar rahbarlari ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to’g’risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo’yicha maslahatchilari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.





“Davlat tilida ish yuritish” kitobining mazkur to’ldirilgan, takomillashtirilgan 9-nashri FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori, prof. Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida “O’zbekiston nashriyoti” tomonidan 3000 nusxada chop etildi.

Mazkur kitob amaliy qo’llanma hisoblanib, unda tashkilot va muassasalarning ish yuritish faoliyatida eng ko’p qo’llaniladigan hujjatlar, ularni tuzish tartib-qoidalari masalalari to’xtalib, tegishli namunalar keltirilgan hamda ish yuritishga oid lug’at berilgan.